




«Ipak yoʻlida turizm» xalqaro sayyohlik yarmarkasi: Surxondaryo viloyati delegatsiyasi bir qator kelishuvlarga erishdi




Joriy yil 30 noyabr-2 dekabr kunlari Toshkent shahridagi «Oʻzekspomarkaz» Milliy koʻrgazmalar majmuasida «Ipak yoʻlida turizm-2022» 27-Toshkent xalqaro sayyohlik yarmarkasi boʻlib oʻtdi.


Unda Surxondaryo viloyati hokimining oʻrinbosari Joʻrabek Toʻraev boshchiligida delegatsiya ham faol ishtirok etdi. Dunyoning 30 ta davlatidan 300 nafardan ziyod soha mutaxassislari va rasmiylar ishtirok etgan mazkur halqaro yarmarkada Surxondaryo viloyati Tojikiston, Qozogʻiston, Rossiya, Gruziya, Qirgʻiziston, Eron Islom Respublikasi, Belorusiya va Armaniston davlatlari bilan turizm oqimlarini oshirish boʻyicha bir qator kelishuvlarga [erishildi](#).






Viloyatda turizm yoʻnalishida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar tomonidan xorijiy va mahalliy hamkorlar bilan mehmonxona, turfirma va boshqa xizmatlar koʻrsatish boʻyicha 200 ga yaqin 11,2 million dollarga teng shartnomalar imzolandi.







Shuningdek, «Ipak yo'lida turizm-2022» xalqaro sayyohlik yarmarkasi doirasida tashkil etilgan ko'rgazmalarda "Shalola" va "Sarmangan" folklor jamoalari, xalq baxshilari, sahnalashtirilgan Alpomish va Barchinoy chiqishlari hamda vohaning turizm salohiyatini o'zida aks ettirgan eksponatlar namoyishi barchaga manzur bo'ldi. Viloyatimizning turizm jozibadorligi xorijlik mehmonlar hamda mahalliy ishbilarmon doira vakillarida katta qiziqish uyg'otdi.